

## **ARAB TILIDA SIFAT VA UNING TURLARI**

**Ortiqbeyeva Zuhra Jamoliddin qizi**  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Sharq filologiyasi fakulteti  
Arab tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi  
zuhraortiqboyeva270@gmail.com  
**Umurzakova Oygu Umarovna**  
Ilmiy rahbar: O‘zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi  
va amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada arab tilida sifatning o‘rnini va uning turlari o‘rganiladi. Asosiy e’tibor sifatlarning ikki turiga – asl va nisbiy sifatlarga qaratilgan. Maqolada bu sifatlarning lug‘aviy va morfologik xususiyatlari, jumladagi vazifalari va o‘ziga xos grammatik qonuniyatları tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot arab tilini o‘rganayotganlar uchun foydali bo‘lib, bu sohadagi nazariy bilimlarni amaliy misollar bilan boyitadi.

**Kalit so‘zlar va iboralar:** arab tili, sifat, asl sifat, nisbiy sifat, grammatik tahlil.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются место и виды прилагательных в арабском языке. Основное внимание уделяется двум типам прилагательных – качественным и относительным. В статье анализируются лексические и морфологические особенности этих прилагательных, их функции в предложении и специфические грамматические закономерности. Данное исследование будет полезно для изучающих арабский язык, так как обогащает теоретические знания практическими примерами.

**Ключевые слова и фразы:** арабский язык, прилагательное, качественное прилагательное, относительное прилагательное, грамматический анализ.

**Annotation.** This article examines the role and types of adjectives in the Arabic language. The primary focus is on two types of adjectives: qualitative and relative. The article analyzes the lexical and morphological features of these adjectives, their functions in sentences, and their specific grammatical rules. This research is beneficial for learners of the Arabic language as it enriches theoretical knowledge with practical examples.

**Keywords and phrases:** Arabic language, adjective, qualitative adjective, relative adjective, grammatical analysis.

Arab tili dunyodagi eng boy va murakkab tillardan biri bo‘lib, uning grammatikasi ko‘p jihatdan chuqur tahlilni talab qiladi. Sifat arab tili sintaksisida muhim o‘rin egallaydi, chunki u otlarning xususiyatlarini belgilaydi va mazmunni aniqlashtiradi. Arab tilidagi sifatlar mazmuniga ko‘ra asl (ichki xususiyatni ifodalaydi) va nisbiy (biror narsa bilan bog‘liq jihatni ko‘rsatadi) turlarga bo‘linadi. Ushbu maqola arab tilida sifatlarning o‘rganishini chuqurlashtirish, ularning farqlovchi tomonlarini aniqlash va ushbu bilimlarni til o‘rganuvchilarga taqdim etishni maqsad qiladi.

Sifat (الصفة) – biror otning xususiyatini yoki holatini ifodalovchi so‘z turkumidir. U arab tilida sifatning ham lug‘aviy, ham grammatik qoidalari bilan belgilanadi. Jumladagi vazifasiga ko‘ra sifat otga ergashuvchi komponent bo‘lib, jins, son va ta’riflanayotgan otning holatiga mos keladi.

Arab tilida sifatlar asosan uch o‘zakli so‘zlardan iborat bo‘lib sifatlar ham otlar kabi muzakkarr va muannas jinslarga, birlik, ikkilik va ko‘plik sonlarga ega. Sifatlardagi birlik, ikkilik sonlarning hosil bo‘lish usuli otlardan farq qilmaydi. Sifatning ko‘plik shakli odatda odamlarning belgisini bildirib kelganida ishlatiladi.

Asl sifatlar otning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Bu sifatlar biror narsa yoki shaxsning ichki va o‘zgarmas xususiyatlarini ko‘rsatadi. Masalan: **كبير** (katta), **جميل** (chiroyli), **طويل** (uzun). Ularning morfologik shakllari oddiy bo‘lib, ko‘pincha bitta so‘zdan iborat bo‘ladi.

Arab tilida sifatlarning 20 dan ortiq vazni mavjud bo‘lib shulardan quyidagi o‘ntasi eng ko‘p uchraydiganidir:

VAZNALAR		MISOLLAR	
MZ	MN	MZ	MN
فاعل 1	فاعلة	بارد	باردة sovuq
فعيل 2	فعيلة	كبير	كبيرة katta
فعل 3	فعلة	صلب	صلبة qattiq
فعل 4	فعلة	تعب	تعبة charchoq
فعل 5	فعلة	صعب	صعبة qiyin
فعل 6	فعلة	حسن	حسنة yaxshi
فيعل 7	فيعلة	جيد	جيدة yaxshi
فعلول 8	فعول	حسور	حسور jasur
أفعال 9	فعلاء	أبيض	بيضاء oq
فعلان 10	فعلا	كسلان	كسلا dangasa

- فعال vaznidagi sifat muzakkarr va muannas jinsda o‘zgarmaydi.
- Bu vaznlar ichida eng ko‘p uchraydigani فعيل va vaznlaridir.

Qolganlari nisbatan kamroq uchraydi.

Bularning ichida **فعل** (mn) vazni tanvin qo’shimchasini olmaydi.

Bu vazndagi sifatlar asosan rangni va jismoniy xususiyatni ifodalovchi sifatlardir. Masalan:

- - خضراء - أخضر ko’kkoz
- Bu sifatlarning ko‘pligi muzakkarr va muannas jinslar uchun فعل vaznida hosil bo‘ladi.

Nisbiy sifatlar biror narsa yoki shaxsni boshqa narsalar bilan bog‘lash orqali aniqlaydi. Nisbiy sifat predmetning belgisini boshqa predmetga yoki tushunchaga nisbatan bildiradi. U ko‘pincha belgisi aniqlanib kelayotgan aniqlanmishning ishlangan materialini, kelib chiqqan joyini , biror predmetga mansubligini va shunga o’xshash boshqa belgilarni bildiradi.

Masalan: جغرافي (iraqlik), إسلامي (islomiy), جغرافي (geografik). Bunday sifatlar asosan boshqa so'zlardan (masalan, joy nomlari yoki ilmiy atamalardan) hosil qilinadi va ko'pincha "ي" qo'shimchasi yordamida shakllanadi.

- Nisbiy sifat ham asliy sifat kabi muzakkár ko'plik kabi muzakkár va muannas jinslarga egadir.

Nisbiy sifatning muzakkari asosan otdan oxiridagi - **un** qo'shimchasini olib tashlab, o'rniغا **ي** iyyun qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.

Muannas nisbiy sifat esa muzakkár oxiriga **ة**- atun qo'shimchasini qo'shish orqali yasali. Masalan :

➤ خشبي - yog'och (mz), خشبي (mn) - yog'ochdan ishlangan - البيت الخشبي - yogo'chdan ishlangan uy.

➤ ذهب - oltin (mz), ذهب (mn) - oltindan yasalgan - ساعة ذهبية - oltin soat.

- ا يoki bilan tugagan otlardan nisbiy sifat hosil qilishda - qo'shimchasidan oldingi ا يoki xarflari و ga o'zgartiriladi.

Masalan:

➤ دنيوي - dunyo (mz), دنيوي (mn) - dunyoviy

➤ آسيوي - osiyo (mz), آسيوي (mn) - osiyoli, osiyocha

- Ayrim so'zlarda esa oldingi ا (alif) tushib qolib, **ي** - qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi. Masalan:

➤ فرنسية / فرنسي - Fransiya - Fransiyalik

➤ أوربية / أوربي - Yevropa - yevropalik

- Ta marbuta (ة) bilan tugagan so'zlardan nisbiy sifat hosil qilishda ushbu xarf tushib qoldiriladi. Masalan :

➤ خرافية / خرافي - xurofot - خرافية

➤ جمهورية / جمهوري - respublika - جمهورية

- Ayrim otlardan nisbiy sifat hosil qilishda so'zning vazni ham bir oz o'zgaradi. Masalan :

➤ فرضية / فرضي - farz - فرضية / فرضي

➤ مدنية / مدنی - shahar - مدنية / مدنی

- Ikki o'zak undoshdan iborat ba'zi otlardan nisbiy sifat hosil qilinganida و xarfi orttiriladi. Masalan :

➤ شفوية / شفوي - og'zaki - شفوية / شفوي

➤ سنة / سنوي - yillik - سنة / سنوي

- Bazi so'zlardan ikki xil nisbiy sifat hosil bo'ladi. Masalan :

➤ روحية / روحي - rux - روحية / روحي

➤ روحانية / روحاني - ruxoniy - روحانية / روحاني

- Ayrim siniq ko'plikdagi otlardan ham nisbiy sifat hosil qilinadi. Masalan:

➤ دولية / دولي - ko'plik - دولية / دولي

➤ صحيفية / صحفي - ko'plik - صحيفية / صحفي

- ❖ Nisbiy sifatlar gapda ko'pincha moslashgan aniqlovchi bo'lib keladi.

Masalan :

➤ بلاد اسلامي - arab tili , لغة عربية - musulmon o'lka

➤ لسان فارسي - امر دنبوی - dunyoviy ish

- ❖ Geografik nomlardan hosil bo'lgan nisbiy sifat o'sha yerli yoki o'sha yerda tug'ilgan, yashagan kishini ifodalaydigam ot vazifasida keladi.

Masalan :

- مصری - misrlik kishi ,      مصرية – misrlik ayol  
➤ افريقي - afrikalik ,      افريقية – afrikalik ayol

Asl va nisbiy sifatlarning farqlari

- Asl sifatlar mustaqil ma'no anglatadi, nisbiy sifatlar esa bog'liqlikni bildiradi.
- Asl sifatlar otning o'zini belgilasa, nisbiy sifatlar otning boshqa narsaga aloqasini ko'rsatadi.
- Nisbiy sifatlar ko'pincha o'zgartirilgan so'zlardan hosil qilinadi.

Jumladagi sifatlarning vazifalari va ularning ot bilan grammatik moslashuvi misollar orqali tahlil qilinadi:

الرجل الطويل (uzun bo'yli erkak) – asl sifat.

الجامعة الإسلامية (islomiy universitet) – nisbiy sifat.

Arab tili grammatikasida sifatlar o'ziga xos o'rinn tutadi. Asl va nisbiy sifatlar arab tili morfologiyasi va sintaksisining ajralmas qismi bo'lib, ulardan to'g'ri foydalanish tilda aniqlik va ma'no boyligini ta'minlaydi. Ushbu maqola tilshunoslarga arab tilida sifatlarning o'rganish qoidalari aniqroq tushunishga yordam beradi va bu boradagi ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Arab tilini o'rganayotgan talabalar sifatlarni chuqur o'rganishlari va ularning amaliy qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Astanova G. Arab tilidan boshlang'ich kurs. O'quv qo'llanma. – Buxoro, 2023.
2. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.
3. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024.
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
5. [www.arabic.uz](http://www.arabic.uz)